

**XALQARO STANDART VA ILG'OR TAJRIBALARNI QO'LLAGAN HOLDA
O'ZBEKISTON BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINI
KENGAYTIRISH**

B.Qobulov

Bojxona institutui magistratura bosqichi tinglovchisi.

I.Pardaev

Bojxona Qomitasi Tadbirkorlik Faoliyatini qo'llab quvvatlash boshqarma boshlig'i, i.f.n.

B.Abdug'aniev

Bojxona institutui Bojxona nazorati kafedrası prafessori, k.i.f.d., dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18260874>

Annotatsiya. Ushbu tezida O'zbekiston bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini yadana kengaytirishning obyektiv zarurati, uning amaldagi holati va uni xalqaro standart talablari asosida optimallashtirish yo'llari, xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni milliy amaliyotda joriy etish to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bojxona rejimi, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali tovarlar eksportini kengaytirish hisoblanadi. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi ostida tovarlarni qayta ishlash, eksportni qo'llab-quvvatlashning zarur vositalaridan biri sanaladi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining asosiy afzalligi eksportga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan xomashyolarni, material va komponentlarni bojxona bojlari va soliqlarni to'lanmagan holda xorijdan olib kirish imkoniyati bilan bog'liq. Shuningdek, mazkur rejimga joylashtiriladigan tovarlarga nisbatan notarif tartibga solish choralarining qo'llanilmasligi ham uning afzalliklaridan biri hisoblanadi.

Qayta ishlash bojxona rejimlari tartiblarini soddalashtirish va optimallashtirish choralari mavzusiga aloqador amaliy va nazariy tadqiqotlar amerikalik olim G.Gereffi, turkiyalik olimlar S.Duru, U.Selen, O.Parlakay, E.Nihal, ruminiyalik olim G.Georgescu, mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlari R.Meshechkina, A.Antonov, G.Balandina, A.Kolpakov, N.Mojenko, S.Istomin, A.Beltyukova, Ye.Fuks, A.Suxarev va boshqalarning ishlarida o'rganilgan.


Ushbu olimlarning ishlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin. Jumladan, amerikalik olim G.Gereffi, mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlari R.Meshechkina, A.Kolpakov, S.Istomin, A.Suxarev, A.Antonov, N.Mojenko va turkiyalik olim S.Durular korxonalar yoki iqtisodiyotning ma'lum bir tarmoqlari tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llashning samarasi, o'ziga xos xususiyatlari va ushbu rejimdan foydalanishning ushbu tarmoqlar rivojiga ta'sirini tahlil qilgan bo'lsalar, G.Balandina, A.Beltyukova, Ye.Fuks, U.Selenlarning ishlarida esa bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni davlat va bojxona ma'murchiligi tomonidan tartibga solish, rejimga rasmiylashtirish tartibotlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Yana bir guruh olimlar: G.Georgescu, O.Parlakay, E.Nihall mamlakat miqyosida (Ruminiya, Turkiya) bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida tovarlarni qayta

ishlashning holati, uning tendensiyasi, mamlakat iqtisodiyotida ushbu rejimni qo'llashning ahamiyatini o'rganganlar.

Dunyo mamlakatlarida bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida qayta ishlangan mahsulotlar eksporti umumiy eksportning o'rtacha 17-18 foizini tashkil etib, O'zbekistonda ushbu rejimga rasmiylashtirish jarayonlaridagi normalarni takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlariga o'rtasida olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida ushbu ko'rsatkichni 2022-yilgi 4,02 foizdan 2024-yilda 7,6 foizga yetkazishga erishildi.

Shunga qaramay, bugungi kunda mamlakat bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlash darajasi mavjud salohiyatdan pastligicha qolmoqda. Ayrim sanoati rivojlangan davlatlar, jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya davlatlarida bojxona hududida qayta ishlangan tovarlar eksportining umumiy eksportdagi ulushi o'rtacha 35-40 foizni tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm. **Dunyoda va ayrim hamkor mamlakatlarda qayta ishlash rejimi ostida qayta ishlangan tovarlarning umumiy eksportdagi ulushi**

Ushbu statistik ma'lumotlardan ham ko'rinadiki, O'zbekistonda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi afzalliklaridan unumli foydalanish uchun milliy bojxona tizimiga bu rejimni qo'llashda yuqori tajribaga ega xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini, shuningdek, ushbu rejim bilan bog'liq bo'lgan xalqaro standartlarni tadbiq etish o'ta ahamiyatlidir.

O'zbekistonda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi ostida qayta ishlangan tovarlar tarkibi tahlil qilinsa uncha keng bo'lmagan assortimentga ega tovarlardan tashkil topishini ko'rish mumkin (1-jadval).

Birgina bug'doy uni tovari (280 mln. AQSh dollari) umumiy qayta ishlangan mahsulotlar eksportining (436,4 mln. AQSh dollari) qariyb 60 foizini tashkil etgan.

Bu esa o'z navbatida bug'doy unining tashqi bozordagi konyunkturasiga bog'liqlikni keltirib chiqarmoqda va bojxona hududida qayta ishlash rejimining imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytirmoqda.

1-jadval.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar*(2024-yillik statistika)*

№	Tovar	Qiymati (ming doll.)
1	Bug‘doy uni	280 105,58
2	Neft mahsulotlari	39 809,77
3	Kiyim-kechak, trikotaj mahsulotlari	23 486,48
4	Motorli transport vositalari uchun kuzovlar	21 483,08
5	Temir yo‘l vagonlari	18 519,60
6	Tirkamalar va yarim tirkamalar	15 417,25
7	Ichki yonuv dvigatellari	10 602,12
8	O‘simlik yog‘i	7 808,65
9	Qog‘ozdan tayyorlangan mahsulotlar	6 141,76
10	Plastmassadan tayyorlangan buyumlar	3 983,31
11	Boshqalar	17 344,90
Jami		459 380,59

O‘zbekiston Hukumati tomonidan oxirgi yillarda bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlashda tadbirkorlarga qulayliklar yaratishga muhim e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo‘llanilishini soddalashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-115-sonli Farmoni imzolandi. Ushbu farmon bilan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga tovarlarni rasmiylashtirishdagi ko‘plab to‘siqlar olib tashlandi.

Jumladan:

- qayta ishlash operatsiyalari ro‘yxati mahsulotlarni qadoqlash, o‘rash, saralash, tozalash, uskunalarni modernizatsiya qilish kabi operatsiyalarni kiritish hisobiga kengaytirildi;
- bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirishda tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik xulosani taqdim etish tartibi bekor qilindi;
- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari va vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash talabi olib tashlandi;
- tovarlar eksport qilingandagi moliyaviy va tarif imtiyozlari qayta ishlashdan hosil bo‘lgan tayyor mahsulotlar reeksportiga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Ushbu yaratilgan yengilliklardan tashqari, O‘zbekistonda bojxona hududida qayta ishlash rejimi tartibotlarini yanada soddalashtirish, uni tadbirkorlar uchun yana ham qulayroq vositaga aylantirish istiqbollari mavjud. “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya” (Kioto konvensiyasi)ning “F” maxsus ilovasida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llash bilan bog‘liq bir qancha normalar va tavsiyalar keltirilgan bo‘lib, hozirda bu tavsiyalarni amalga oshirishda O‘zbekiston bojxona qonunchiligida to‘liq mexanizmlar ishlab chiqilmaganligi sababli amaliyotda keng qo‘llanilmaydi.

“F” maxsus ilovaning 13-bandida quyidagi tavsiya berilgan:

“Bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi:

- xususiyatlari deyarli o'zgaras bo'lib qoladigan tovarlarni nazarda tutadigan;
- odatda aniq belgilangan texnik shartlarga muvofiq amalga oshiriladigan; va
- bir xil sifatga ega kompensatsiyalanadigan tovar olinadigan holatlarda

vakolatli organlar ushbu operatsiyalar uchun tovarlarning standart chiqish normalarini belgilab qo'yishlari lozim".

O'zbekiston qonunchiligida qayta ishlash tovarlarining chiqish normalari belgilanmagan va chiqish normasini tovarga nisbatan vakolatli shaxsning o'zi ma'lum qilishi belgilangan. Bu holat tadbirkorlar uchun erkinlik berish baravarida qo'shimcha ma'suliyat ham yuklaydi. Bazi operatsiyalarda chiqish normasining standart belgilab qo'yilishi tadbirkorlarni zimmasidagi javobgarlikdan halos etib mavjud ikkilanishlarga barham beradi.

Ilovaning 26-bandida quyidagi tavsiya berilgan:

"Ekvivalent kompensatsiyaga ruxsat etilgan hollarda bojxona organi kompensatsiyalanadigan tovarni qayta ishlash tovari bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilishidan oldin eksport qilishga ruxsat berishi lozim".

Ya'ni, ushbu tavsiyaga ko'ra vakolatli shaxs ekvivalent kompensatsiya-lanadigan tovarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishga ruxsat etilgan hollarda bojxona hududida qayta ishlash uchun tovarni olib kirishdan oldin ekvivalent tovarni qayta ishlashdan hosil bo'lgan tovarni eksport qilishi va keyinchalik qayta ishlash uchun tovarni belgilangan tartibda bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 77-moddasiga ko'ra "Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan, olib kirilgan tovardan olinadigan qayta ishlash mahsulotini ekvivalent tovarni qayta ishlash orqali olingan boshqa tovar bilan, shu jumladan O'zbekiston tovari bilan almashtirishga, agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yo'l qo'yiladi". Shu o'rinda ekvivalent kompensatsiyaga faqatgina Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi to'g'risidagi norma tadbirkorlik subyektlari uchun birmuncha qiyinchilik va ortiqcha ovoragarchilik keltirib chiqarishi sababli amaliyotda bunday operatsiyalar deyarli amalga oshirilmayapti.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan yuqori samara olayotgan xorijiy mamlakatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi amaliyotida Konvensiyaning ushbu talabi to'liq amaliyotga joriy qilingan. Yevropa Ittifoqining bojxona qonunchiligiga muvofiq, ekvivalent tovarlar bilan kompensatsiya qilishga yo'l qo'yiladigan qayta ishlash operatsiyalarida, ishlab chiqaruvchilarga avval eksport qilingan tayyor mahsulotni yaratishda ishlatilgan miqdordagi xomashyoga ekvivalent xomashyoni keyinchalik bojxona to'lovlarisiz olib kirishga ruxsat beriladi.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarga ushbu xomashyoni bojxona to'lovlarisiz import qilish huquqini boshqa shaxslarga o'tkazishiga ham yo'l qo'yiladi. Yevropa Ittifoqida qayta ishlash bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan elektron axborot tizimi (CAS - cloud-based customs management solution) ishga tushirilganligi ham bu jarayonlarni boshqarishni soddalashtirib tadbirkorlarga yanada qulayliklar yaratmoqda.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotini qaraydigan bo'lsak, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi tartibotlarini qo'llashda har bir mamlakatda bir-birini takrorlamaydigan turli xil xususiyatdagi normalar shakllanganligini ko'rish mumkin. Shulardan O'zbekistondagi amaliyotdan farqli ayrim jihatlarini o'rganib chiqish ahamiyatli hisoblanadi.

Bojxona hududida qayta ishlash darajasi salmoqli natija ko'rsatgan Turkiyada O'zbekistondan farqli o'laroq qayta ishlashning umumiy muddati 12 oy qilib belgilangan va ayrim turdagi amalda uzoqroq vaqt talab etadigan operatsiyalar uchun (kemasozlik, mudofaa sanoati va b.) mazkur operatsiya talab etadigan vaqtdan kelib chiqib uzoqroq muddatga ruxsat berilishi nazarda tutilgan. Xitoy qonunchiligida esa tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirish muddati aniq belgilanmagan.

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun qo'yiladigan asosiy talablardan bittasi bu bojxona to'lovleri to'lanishini ta'minlash bo'lib, o'rganilgan deyarli barcha mamlakatlar tajribasida ushbu talab mavjud. Shunday bo'lsa-da, Turkiya tajribasida ayrim me'zonlarga mos keluvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ta'minot summasi to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining 1%, 5%, 10% qismi darajasigacha kamaytirish holatlari e'tiborga molik hisoblanadi.

Irlandiya tajribasiga ko'ra tovarlarni utilizatsiya qilish qayta ishlash operatsiyalari turiga kiritilgan. Bu esa ayrim qayta ishlash mumkin bo'lgan tovarlarni utilizatsiya qilishdan ikkilamchi xomashyo olish orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston bojxona qoidalariga quyidagilarni tadbiiq etish maqsadga muvofiqiigi to'grisida takliflar ishlab chiqildi:

- tegishli soha mutaxassislarini jalb etgan holda ayrim tovarlarning standart chiqish normalarini belgilab qo'yish;
- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 77-moddasiga tovarlarning ekvivalent kompensatsiyasiga ruxsat berish vakolatini Vazirlar Mahkamasidan bojxona organlariga o'tkazishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish;
- bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasini rasmiylashtirish, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish, ushbu rejimni yakunlash, tovarlar qoldig'i, chiqindilar va boshqa barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan elektron axborot tizimini ishlab chiqish (Yevropa Ittifoqining CAS (*cloud-based customs management solution*) tizimining analogi sifatida);
- Bojxona kodeksida ayrim tovarlarni qayta ishlash operatsiyalari uchun standart qayta ishlash muddatlarini bojxona organlari tomonidan belgilab qo'yilishini nazarda tutuvchi normani kiritish. Bunda, standart qayta ishlash muddatlari belgilanmagan hollarda kodeksda belgillangan ikki yillik muddatning qo'llanilishi;
- doimiy ravishda qayta ishlash operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini shakllantirib, faoliyati natijalarini baholagan holda, ishonchli deb topilgan subyektlarga bojxona to'lovlarini ta'minlash summasini kamaytirish (masalan to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50% dan 25 foizigacha) orqali qo'llab-quvvatlash;
- utilizatsiya qilish orqali sanoatda qayta ishlashga yaroqli ikkilamchi xomashyolar olish mumkin bo'lgan tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida utilizatsiya qilishga ruxsat berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Bojxona tartibotlarini soddalashtirish va uygʻunlashtirish toʻgʻrisida”gi xalqaro Konvensiya. – Kioto, 03.02.2006 yil.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.04.2022 yildagi PF-115-son.
4. Brandt, L., Li, B. and Morrow, P.M. (2021) “Processing trade and cost of incomplete liberalization: The case of China”, *Journal of International Economics* vol.131, 103453.
5. Lyashenko V.I., Osadchaya N.V. “Таможенный режим ввоза для переработки: алгоритм использования и направления совершенствования” / V.I. Lyashenko, N.V. Osadchaya// - Ukraina: - “Экономика промышленности” – 2012.
6. <https://customs.uz/uz>.
7. <https://stat.uz/uz>.